

AJDODLAR SIYMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TIZIMI.

Xaitov Zufar Asroralievich

Termiz davlat pedagogika instituti. O'zbekiston

Katta o'qituvchi

zufarxaitov5@gmail.com <https://orcid.org/0009-0007-0003-412X> +998332727494

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ajdodlar siymosini tasviriy san'at vositasida ifodalash orqali talabalarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishning metodik tizimi yoritilgan. Tadqiqotda talabalarda milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy merosga sadoqat va estetik tafakkurni shakllantirishda tasviriy san'atning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlar siymosini rangtasvir va qalamtasvir vositasida tasvirlashning metodik bosqichlari hamda pedagogik algoritmlari bayon etilgan. Maqolada portret ishlash metodikasi, kompozitsion yechimlar, rang uyg'unligi, obrazning xarakterini ochib berish va ijodiy yondashuv asosida talabalar badiiy kompetensiyasini rivojlantirish usullari tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish hamda yoshlarni milliy g'urur, vatanparvarlik va ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ajdodlar siymosini ifodalashda portret janrining imkoniyatlarini Qalamtasvir va Rangtasvir fanlarini amaliy ahamiyati ochib berilgan. Ajdodlarimizning ma'naviy va ilmiy me'roslarini kelajak avlodga yetkazishda ularning siymosining o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'z: *Milliy iftixor, Qalamtasvir, Rangtasvir, Portret, Miniatyura, Komponovka, Tushlash, Yaxlit idrok, Ajdod, Siymo*

Abstract: *This article highlights the methodological system for improving the education of students in the spirit of national pride through the expression of ancestral figures by means of visual arts. The study analyzes the pedagogical possibilities of visual art in shaping students' respect for national values, devotion to historical heritage, and aesthetic thinking. Furthermore, the methodological stages and pedagogical algorithms of depicting the images of great ancestors such as Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, and Zahiriddin Muhammad Bobur through painting and pencil drawing are described. The article recommends methods for developing students' artistic competence based on portrait drawing methodology, compositional solutions, color harmony, revealing the character of an image, and creative approaches. The research findings are of significant scientific and practical importance in improving the effectiveness of teaching visual arts in higher educational institutions and in educating young people in the spirit of national pride, patriotism, and moral maturity. The practical significance of the subjects Drawing and Painting in expressing ancestral images through the portrait genre is revealed. The article also discusses the role of*

ancestral portraits in conveying the spiritual and scientific heritage of our ancestors to future generations.

Keywords: *National pride, Drawing, Painting, Portrait, Miniature, Composition, Tonal Rendering, Holistic Perception, Ancestor, Image.*

KIRISH

Ushbu maqolada hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-ma'rifiy hayot islohotlarining jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgani, oliy ta'lim mazmunining yangilanishi, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, chizmachilik, tasviriy san'atni o'qitish yo'nalishlarini kuchaytirish talablari asosiy ahamiyat kasb etganligi sharoitida, Tasviriy san'at fanini o'qitish jarayonida tasviriy san'atning portret va tarixiy janrda ajdodlarimizning siymolarini ifodalash vositasida talabalarda milliy iftixor ruhida tarbiyalash, ularning vatanga bo'lgan muhabbatini rivojlantirish mumkinligini ilmiy-metodik zaruriyat sifatida asosladi. Albatta "Tarixsiz kelajak yoq" kabi xalq og'izaki ijodiga keltirilgan ushbu naql bekorga aytilmagan. Ajdodlarimizning ma'naviy va madaniy meroslarini tanish va o'rganish bilan bir qatorda ularning siymosini tashqi ko'rinishlarini tanish yoshlarga iftixor g'urur hissini rivojlantiradi. Biz xalqimizning mashaqqatli mehnatini ham kelajak avlodga tasviriy san'at asarlari misolida yetkazishimiz burchimizdir. "Surxondaryo xalqining mehnatsevar" dehqon ipak qurti parvarishlayotgan ayollar (maishiy janr misolida) turli kompozitsiyalar ishlash orqali mashaqqatli va faxrlanishga arzugulik turmush tarzini asarlarda namayon qilish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda "Yoz ne'matlari" misolida natyurmort kompozitsiyalarida ijodiy ish yaratib xalqimizning mashaqqatli mehnati natijasida lazzatli mevalarni yetishtirib halol mehnat qilishga o'rgatish vazifa sifatida barchamizga ta'luqlidir. Xalq pedagogikasi tajribasidan, uning o'ziga xos etnopedagogik materialidan foydalanish, o'tmishning buyuk ilg'or pedagoglari izlanishlarida kuzatiladi - Ya.A. Komenskiy, I. G. Pestalotsi va K. D. Ushinskiy, ularning didaktik va ta'lim tizimlarini qurishda xalq pedagogikasi tahlil qilish va umumlashtirishga katta e'tibor qaratdi.

O'tmishning yetuk o'qituvchilari-V. I. Vodovozov, N. F. Bunakov, D. I. Tixomirov, V. V. Fleerov, V. P. Vaxterov va boshqalar, o'z pedagogik ishlarida xalq ta'limining boy ilg'or g'oyalari va tajribasidan, shuningdek, xalq pedagogikasi yodgorliklari namunalaridan yuqori baholanib, ijodiy qayta ko'rib chiqildi va foydalanildi.

Bu o'rinlarda A. E. Izmaylovning ishi alohida o'rin tutadi, unda muammoni o'rganishning xronologiyasi G. S. Vinogradovdan hozirgi kungacha har tomonlama va chuqur qayta yaratilgan. Boshqa tadqiqotlar qatorida Sh. Kurbonov, A. Minavvarov, K. Pirliev, Ye. Seithalilovlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Har bir o'qituvchi-tarbiyachi bolani talab va ehtiyoj asosida o'qitishi va uni shaxs sifatida barkamol inson qilib voyaga yetkazishi uchun – bolaning yosh va psixologik xususiyatlarni bilish, ularni inobatga olib ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishi lozim. Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish uchun ajdodlar merosiga nazar solamiz. Ajdodlarimizning merisi

bilan bir qatorda ularning siymosini ham tanish orqali ularga hurmat va qadr, faxrlanish g'ururlanish kabi yuksak tuyg'ular rivojlanib boradi.

NATIJALAR

B.Jalolov. "Abadiylik gumbazi ostida". 1995 yil. Asarda O'rta Osiyoning buyuk olimlari va mutafakkirlari obrazlari tasvirlangan. Markazda ochiq holda muqaddas Qur'on tasvirlangan. Pastroqda jangovor ot mingan Amir Temur. Yana pastroqda, asarning o'rtasida buyuk shoir Alisher Navoiy Kamoliddin Behzod va Mirzo Bobur o'rtasida tasvirlangan. Garchi asarda tasvirlangan barcha olimlar va mutafakkirlar turli davrlarda yashagan bo'lsada, lekin asarda ular bir guruh qilib birlashtirilgan. Ularning barchasini fanga va insoniyatga xizmat qilishdek yagona maqsad birlashtiradi. Ochib qo'yilgan Qur'on barchani o'zining muqaddas nuri bilan yoritadi. Ularni butun dunyodagi ma'rifatli insoniyat hurmat qiladi. "Asar markazida rassom vaqt va muhitni tasvirleydi. Kompozitsiya asosini turli davrlar va turli makonlar birligi tashkil etgan. Tomoshabin ularni bir butun voqelik sifatida idrok etadi. O'tgan asrda rus rassomi V.A.Favorskiy shunday yozgan edi:



"San'atda kompozitsiya va kompozitsiyaviylik ta'riflaridan biri shundaki, turli davr va makondagi voqelikni bir butun holatda idrok etish, ko'rish va tasvirlashga intilish seziladi"¹⁴¹. "B.Jalolov O'zbekiston madaniyatidagi tasviriy san'atda mahobatli asarlar yaratishda ilg'or hisoblanadi. Uning mohirona yaratgan asarlarida akademik maktablar an'analari, G'arb va Sharqning boy tafakkuri va estetikasi uyg'unlashib ketgan"¹⁴², deb yozgan edi akademik Akbar Xakimov.

O'zbekiston mustaqilligiga bag'ishlangan bu asar o'zining ishlanishiga ko'ra ulug'vorligi va jiddiy, mazmuniy, tarixiy haqqoniyligi bilan har qanday tomoshabinni maftun qilib qo'yadi. Zukko tomoshabin tarixiy sinoatlarga ega bo'lgan o'zbek xalqi buyuk va qudratli




ekanligiga yana bir bora ishonch hosil qiladi. Uni har safar ko'zdan kechirganda kompozitsiyaga singdirilgan g'oyaning yangi qirralarini anglash mumkin. **B.Jalolov. "Abadiylik gumbazi ostida". 1995 yil. Lavha.** Ularni tasviriy san'at asari sifatida tan olinishi va ijobiy idrok etilishi ularning afzalligi va ko'plab o'nyilliklar davomida mutaxassislar tomonidan ta'kidlanishiga bog'liq. XXI asr madaniyatidagi tasviriy san'atning rivojlanish


istiqboli, shubhasiz, bo'lajak rassomlarning kasb mahoratiga bog'liq. Hayotiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda zamonaviy tasviriy amaliyotning nazariy va amaliy bazasini takomillashtirish zaruriy shart hisoblanadi. Badiiy idrok, san'atdagi ish mohiyati haqidagi

tasavvur va uning davr hayoti bilan aloqalari asosi tasviriy san'at ustalari ijodida mamlakatning yangi ijtimoiy voqeligi xususiyatlari va milliy san'at hamda adabiyot namunalari belgilanadi. Tasviriy san'atning tarixiy janridagi asarlardan iborat madaniyat ob'ektlarini idrok etilishi unga bo'lgan tomoshabining nigoh tashlashi bilangina emas, balki ularni qiyosiy anglashiga asoslanadi. Aynan shu yo'l bilan madaniyatning turli ko'rinishlari jamlanganda ularni ifodalashning oliy shakli hisoblangan san'at asari ajralib turadi. Bunday holatdan tasviriy san'atning tarixiy janrlaridagi asarlar ham istisno emas.


1-rasm. Sohib qiron Amir Temurning portretini tasvirlash algoritmi




1-bosqich



2-bosqich



3-bosqich



4-bosqich



5-bosqich



6-bosqich

Amir Temur portreti ifodalash asnosida qatiyat gurur kabi sifatlarni rivojlantirishni takidlash joizdir.

Milliy istiqlol g'oyasi xalqning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydi, orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston asrlar davomida dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Shuning uchun ham milliy ma'naviyatni rivojlantirish, o'zlikni anglash, madaniy meros va tarixiy o'tmishga kishilarimizda chuqur hurmat, uni o'rganishga intilish tuyg'usi kuchayishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Partiya tizimida ham

mazkur mavzular muhokamasiga keng o'rin berish, targ'ibot ishlarini kuchaytirish kerak, deb o'ylayman. Chunki, milliy iftixor tuyg'usi kuchli odam katta ishlarga qodir bo'ladi.

Shu o'rinda e'tirof etishi joizki, har bir inson takrorlanmas, o'ziga xos anatomik-fiziologik, ruhiy-intelektual, jismoniy xususiyatlarga ega bo'lgan biologik va ijtimoiy mavjudotdir. Ammo, uning o'ziga xos xususiyatlari o'zgarmas va qotib qolgan narsa emas, balki turmush tarzi, sotsial talab-ehtiyojlar ta'sirida o'zgarib, takomillashib boruvchidir. Ayniqsa, hozirgi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlodning maktab ostonasidan boshlab, bilimdonligi va ma'naviy-siyosiy ongliligini oshirish, milliy mafkuraga iftixor va g'ururga sodiqligini yuksaltirish, kasbiy-madaniy tayyorgarligini oshirish mamlakat ta'lim-tarbiya muassasalari oldida turgan eng muhim vazifasidir.

XULOSA

Mazkur mavzu doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ajdodlar siymosini tasviriy san'at vositasida ifodalash talabalarda milliy iftixor, vatanparvarlik, tarixiy xotiraga hurmat va estetik didni shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ajdodlar obrazini yaratish jarayoni faqat badiiy faoliyat emas, balki chuqur ma'naviy-tarbiyaviy jarayon bo'lib, u talabaning dunyoqarashi va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Metodik tizim nuqtai nazaridan portret ishlash jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish kompozitsion yechimni tanlash, anatomik tuzilishni to'g'ri ifodalash, rang va tus uyg'unligini ta'minlash hamda obrazning ichki xarakterini ochib berish talabalarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar siymosini yaratishda ilmiy asoslangan yondashuv va ijodiy talqin uyg'unligi muhim o'rin tutadi.

Xususan, Amir Temur portretini tasvirlash jarayonida uning kuchli irodasi, davlat boshqaruvidagi qat'iyati va ma'naviy salobatini ifodalash asosiy badiiy vazifa hisoblanadi. Bunday obrazni yaratish talabdan nafaqat texnik mahoratni, balki tarixiy bilim, kuzatuvchanlik va chuqur ijodiy yondashuvni ham talab etadi.

Umuman olganda, ajdodlar siymosini tasvirlashga yo'naltirilgan metodik tizim oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanlarini o'qitish samaradorligini oshiradi hamda yosh avlodni milliy g'urur va ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kitoblar

1. Baymetov B. "Qalamtasvir". Darslik 1-qism. T.: Musiqa 2006 yil -bet 86.
2. Xalilov R. "Рисунок".T.: Navruz 2013 yil - bet 74
3. Xaitov.Z.A "Rangtasvir". O'quv qo'llanma. T.: Surxon ilm nashr, 2024 yil. - bet. 104.
4. Sadatov.Ch.X "Qalamtasvir" O'quv qo'llanma. T.: Lesson press 2025 yil –bet 95

Jurnallar

1. Shavkat, S., Zufar, X., & Mahliyo, Y. (2021). Graphic recommendations for the analysis of simple and complex girix pattern compositions in the art of embroidery by geometric patterns. *Universum: технические науки*, (11-5 (92)), 95-98.
2. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.
3. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.
4. Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. - 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 312-316.
5. Asroralievich, K. Z., Shonazarovna, M. M., & Ziyodullayevna, C. P. (2024). Improving the Education of Students in the Spirit of National Pride Through the Expression of the Image of Ancestors. *Miasto Przyszłości*, 54, 1707-1711.
6. Xaitov, Z. A. (2023). AJDODLAR SIYMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI. *Inter education & global study*, 1(4), 30-32.
7. Хайтов, З. А. (2022). ПСИХОЛОГИК ПОРТРЕТ ҚАЛАМТАСВИРИНИ ТАСВИРЛАШДА ИДРОК ЭТИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(4), 184-189.
8. Xaitov, Z. A. (2023). AJDODLAR SIYMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI. *Inter education & global study*, 1(4), 30-32.
9. Xaitov, Z. A. (2023). О'QUVCHILARGA TASVIRIY SANAT DARSLARIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNING NAZARIYADAGI AHVOLI TAHLILI. *Inter education & global study*, 1(4), 27-29.
10. Xaitov , Z. ., Mamadaminov , G. ., & Xudoyberdiyeva , M. . (2025). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN FUTURE ART TEACHERS THROUGH THE STUDY OF THE WORKS OF EASTERN THINKERS. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(3), 328–331. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/jasss/article/view/81588>.

Vebsayt

1. [Uzbek scholar journal](#)
2. [Inlibrary ilmiy bazasi](#)
3. [In Academy ilmiy jurnal](#)
4. [Erus ilmiy jurnal](#)
5. [WOS journals](#)